



ZAIF ESHITUVCHI BOLALAR TALAFFUZ MALAKALARINI TEKSHIRISH METODIKASI

Oybekova Shukrona Oybek qizi

*Qo‘qon davlat universiteti Magistratura bo‘limi
Maxsus pedagogika (surdopedagogika) mutaxassisligi
2- bosqich magistranti*

Annotatsiya. Mazkur maqolada zaif eshituvchi bolalar talaffuz malakalarini tekshirishning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan. Talaffuzni tekshirish jarayonida eshitish holatini, artikulyatsion apparat faoliyatini, fonematik eshitishni, nutqiy nafasni va ovoz funksiyalarini baholash metodlari tahlil qilingan. Shuningdek, nonutqiy tovushlarni tanish testi, so‘z va bo‘g‘inlarni takrorlash usuli, rasm asosida nomlash hamda fonematik eshitishni tekshirish metodlarining diagnostik ahamiyati ochib berilgan. Zaif eshituvchi bolalar talaffuzidagi kamchiliklarni aniqlash va korreksion ishlarni samarali tashkil etishda individual yondashuvning ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: zaif eshituvchi bolalar, talaffuz malakasi, talaffuzni tekshirish, fonematik eshitish, artikulyatsion apparat, nutqiy nafas, ovoz funksiyasi, korreksion pedagogika, surdopedagogika, diagnostika.

METHODOLOGY FOR ASSESSING PRONUNCIATION SKILLS IN CHILDREN WITH HEARING IMPAIRMENT

Abstract. This article discusses the theoretical and practical foundations of assessing pronunciation skills in children with hearing impairment. The methods used to evaluate hearing status, articulatory functioning, phonemic hearing, speech breathing, and voice functions are analyzed. Particular attention is paid to the diagnostic significance of non-speech sound recognition tests, word and syllable repetition tasks, picture-naming activities, and phonemic discrimination assessments. The study highlights the importance of an individualized approach in identifying pronunciation difficulties and organizing effective corrective interventions for children with hearing impairment.

Keywords: children with hearing impairment, pronunciation skills, pronunciation assessment, phonemic hearing, articulatory apparatus, speech breathing, voice function, corrective pedagogy, surdopedagogy, diagnostics.

МЕТОДИКА ОБСЛЕДОВАНИЯ ПРОИЗНОСИТЕЛЬНЫХ НАВЫКОВ У СЛАБОСЛЫШАЩИХ ДЕТЕЙ.

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические и практические основы обследования произносительных навыков у слабослышащих детей.

Проанализированы методы оценки состояния слуха, функционирования артикуляционного аппарата, фонематического слуха, речевого дыхания и голосовых функций. Особое внимание уделено диагностической значимости тестов на распознавание неречевых звуков, повторение слов и слогов, называние предметов по картинкам, а также обследование фонематической дифференциации. Обоснована важность индивидуального подхода при выявлении нарушений произношения и организации эффективной коррекционной работы со слабослышащими детьми.

Ключевые слова: слабослышащие дети, произносительные навыки, обследование произношения, фонематический слух, артикуляционный аппарат, речевое дыхание, голосовая функция, коррекционная педагогика, сурдопедагогика, диагностика.

Bolaning gapirishni o'rganish jarayonining katta qismi atrofidagi insonlarning nutqini eshitish orqali amalga oshadi. Agar bolada yengil eshitish nuqsoni bo'lsa, u ayrim tovushlarni, ayniqsa "s, sh, z, f, v" kabi sirg'aluvchi tovushlarni eshita olmasligi mumkin. Bunday tovushlar til tarkibida juda ko'p uchrashi sababli, ularni eshita olmaslik nutqni o'rganishni ancha qiyinlashtiradi. Bu holat o'qishni o'rganish, ijtimoiy ko'nikmalar va maktabdagi o'zlashtirish bilan bog'liq muammolarga ham olib kelishi mumkin. Shuning uchun talaffuz malakalarini tekshirish va shakllantirishda individual yondashuv, vizual, taktil va artikulyatsion nazoratni birlashtirish zarur.

Talaffuzni tekshirishdan oldin bolaning eshitish holatini (audiometrik tekshiruv orqali eshituv qoldig'ini) va artikulyatsion apparatni (og'iz bo'shlig'i, til, lab, jag' harakati) baholash lozim. Quyidagi bosqichma-bosqich metodlar zaif eshituvchi bolalar uchun moslashtirilgan holda qo'llaniladi:

So'z va bo'g'inlarni takrorlash usuli (Imitation test). Maxsus pedagog oddiy so'zlarni (3–5 harfli) talaffuz qiladi, bola takrorlaydi. Misollar: olma, baliq, daraxt; banan, piyola; samolyot, kuchuk, ananas. Har bir so'zni 3 marta takrorlang. Bola qiyinchiliksiz bajarsa, murakkabroq so'zlarga (s, sh, z, ch, j tovushlari bilan) o'ting. Rasm ko'rsatib "Bu nima?" deb so'rash ham samarali.

Rasm asosida nomlash va gapirish (Picture naming). Stolga 10–15 ta oddiy rasm qo'ying (quyon, olma, qush, baliq va h.k.). Topshiriqlar: "Menga olmani olib ber", "Suvda suzayotgan baliqni ko'rsat", "Uchayotgan qushni ko'rsat". Bu usul talaffuz aniqligi, so'z boyligi va muloqotni bir vaqtda tekshiradi.

Fonematik eshitish va farqlash testi. Yaqin tovushlarni solishtiring: s – sh, z – j, f – v, t – d. Surdopedagog ikkita so'zni aytadi (masalan, "som – shom"), bola rasm tanlaydi yoki takrorlaydi. Eshitish apparati yoki kuchaytirgichdan foydalaning.

Tekshirish natijalarini protokolga yozing: qaysi tovushlar noto'g'ri (o'tkazib yuborish, almashtirish, buzish), prosodika (ohang, ritm, ovoz kuchi).

"Zaif eshituvchi bolalar talaffuzini tekshirishda quyidagi vazifalar belgilanadi:

- Ta'lim-tarbiya jarayonini olib borishda aniq reja asosida talaffuz kamchiliklarini bartaraf etish uchun korreksion ishlarni tashkil etilish.
- Chuqur o'rganish orqali bolada kuzatiladigan salbiy xususiyatlarni aniqlash.

- Pedagogik faoliyat davomida talaffuz kamchiliklarini aniqlash va ularda kuzatiladigan o'zgarishlarni belgilash.

Maxsus maktabgacha ta'lim tashkilotlarida nutq nuqsoniga ega bo'lgan zaif eshituvchi bolalarning talaffuzini tekshirish bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi:

Birinchi bosqich: mo'ljal olish bosqichi, bunda bolalar haqida anamnez ma'lumotlar yig'iladi va bolalar bilan muloqatga kirishiladi.

Ikkinchi bosqich: farqlash bosqichi, bunda bilish, ko'rish, eshitish nuqsonlari orqali bolada kelib chiqadigan nutq nuqsonlarini tekshirish.

Uchinchi bosqich: asosiy bosqich, bunda nutq tuzilishining barcha tomonlari tekshiriladi.

To'rtinchi bosqich: yakunlovchi bosqich, bunda maxsus ta'lim va tarbiya jarayonida bolaning rivojlanish dinamikasi nazorat qilinadi".

Talaffuzni tekshirishning asosiy metodi: hujjatlarni o'rganish, bola bilan suhbatlashish, uning ota-onasi bilan suhbat o'tkazish, bolani kuzatish va test o'tkazish metodlari.

Kuzatish metodi zaif eshituvchi bolani tekshirish jarayonining barcha bosqichlarida olib boriladi. Ushbu metod orqali bolaning xulqi, muloqoti, harakatlari hamda faoliyat jarayonidagi individual xususiyatlari tabiiy sharoitda o'rganiladi. Biroq bolaning rivojlanish darajasini yanada chuqur va batafsil aniqlash uchun eksperimental tekshiruv metodidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Eksperimental tekshiruv bolaning psixik rivojlanishi, bilish jarayonlari hamda amaliy faoliyati haqida kengroq va aniqroq ma'lumot olish imkonini beradi. Bunday tekshiruvlarni tashkil etishda bir qator muhim tamoyillarga amal qilish talab etiladi. Avvalo, psixologik-pedagogik jarayon bolaning kundalik hayot faoliyatiga yaqin tarzda modellastirilishi lozim. Shu sababli topshiriqlar o'yin, o'qish yoki oddiy amaliy faoliyat ko'rinishida tashkil etilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bolaga taqdim etiladigan vazifalar uning yoshi, individual imkoniyatlari hamda mavjud bilim va ko'nikmalariga mos bo'lishi kerak. Bu esa tekshiruv natijalarining ishonchligini ta'minlaydi.

Nutqiy nafasni tekshirish jarayonida avvalo nutqsiz nafas olish holati baholanadi. Bunda bolaning ko'krak qafasi orqali nafas olishi, diafragmal nafas turi hamda aralash nafas olish xususiyatlari kuzatiladi. Shuningdek, nutqiy nafasning shakllanganlik darajasi aniqlanadi. Tekshiruv davomida bolaning bir nafas chiqarishda nechta so'zni talaffuz qila olishi hisobga olinadi. Nutqiy nafasning ko'lami ham alohida baholanib, uning me'yor darajasida yoki yetarli rivojlanmaganligi aniqlanadi.

Ovoz funksiyasini tekshirishda bolaning ovoz xususiyatlari kompleks tarzda o'rganiladi. Dastlab ovoz balandligi baholanib, uning me'yoriy, past yoki haddan tashqari balandligi aniqlanadi. Keyingi bosqichda ovoz tembri tekshirilib, ovozning tabiiyligi, bo'g'ilgan yoki manqalanib eshinishi kabi holatlar kuzatiladi. Ovoz atakasi ham baholanadi. Ovozning hosil bo'lishida yumshoq, qattiq yoki nafasli boshlanish holatlari aniqlanadi. Ovoz modulyatsiyasini tekshirishda esa nutqda monotonlikning mavjud yoki mavjud emasligi, ya'ni ovoz ohangining o'zgaruvchanligi va ifodaliligi tahlil qilinadi.

Zaif eshituvchi bolalar talaffuz malakalarini tekshirish korreksion-pedagogik ishlarning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Talaffuzni tekshirish jarayonida bolaning eshitish imkoniyatlari, artikulyatsion apparat holati, fonematik eshitishi, nutqiy nafasi va ovoz funksiyalarini kompleks baholash zarur. Nonutqiy tovushlarni farqlash, soʻz va boʻgʻinlarni takrorlash, rasm asosida nomlash hamda fonematik eshitishni tekshirish metodlari talaffuzdagi kamchiliklarni aniqlashda samarali vosita boʻlib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Nurkeldiyeva D.A. Surdopedagogika. — Toshkent: Tamaddun, 2018.
2. Poʻlatova P.M., Nurmuhammedova L.Sh. Maxsus pedagogika. — Toshkent, 2014.
3. Qodirova F.U., Fayziyeva U.Y., Kobilova Sh.X., Ishmatova O.S., Umaraliyeva M.A. Surdopedagogika. — Chirchiq, 2024.
4. Raxmanova V.S. Korreksion pedagogika va logopediya. — Toshkent: Iqtisod va moliya, 2007.
5. Saidova M.M. Maxsus pedagogikaning asoslari. — Toshkent: Noshir, 2012.
6. Shomahmudova R., Moʻminova L. Bolalar nutqidagi nuqsonlar va ularni bartaraf etish. — Toshkent: Turon-Iqbol, 2007.
7. Voxobova M.S. Logopedik texnologiya. — Namangan, 2024.
8. Xamidova M.U. Maxsus pedagogika. — Toshkent, 2018.
9. Андреева Л.В. Сурдопедагогика. — М.: Академия, 2005.
10. Боскис Р.М. Глухие и слабослышащие дети. — М.: Советский спорт, 2004.
11. Боскис Р.М. Учителю о детях с нарушениями слуха. — М.: Просвещение, 1988.